O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI TERMIZ TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

Termiz tumani, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 191200, tel.: (+99876) 36-32-200, faks.: (+99876) 36-32-200, termiz.t@exat.uz

2023 - yil 28 - noyabr 350-8-117-Q/23 Termiz tuman hokimligi

Surxondaryo viloyat hokimining 2023-yil 20-noyabrdagi “Viloyat hududidagi shahar atrofi va viloyat ichi shaharlararo yo‘lovchilar transportida yo‘lovchi va bagaj tashish tariflarini belgilash to‘g‘risida”gi 583-8-0-Q/23-sonli qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasi “Avtomobil transporti to‘g‘risida”gi 674-I-sonli Qonunining 15-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 17-sentabrdagi “Umumiy foydalaniladigan transportda yo‘lovchi tashuvchilar faoliyatini hamda ularni moliyalashtirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 273-sonli va 2021-yil 8-oktabrdagi “Hududlarda jamoat transporti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 630-sonli, qarorlari ijrosi yuzasidan hududlarda (shahar va tumanlarda) yo‘lovchilar transportida yo‘lovchi va bagaj tashishning yo‘l qo‘yiladigan tariflar darajasi iqtisodiy asoslangan tashish xarajatlaridan va yo‘lovchilar tashish xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojdan kelib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. Termiz tumanida, tuman atrofi va tuman ichi, shaharlararo yo‘lovchilar transportida yo‘lovchilar va bagaj tashish xizmatlarining cheklangan tarifi quyidagicha belgilansin:

a) avtobuslarda bir yo‘lovchi km uchun 220 (bir yuz yetmish) so‘m;

b) yo‘nalishli taksi (mikroavtobus)larda bir yo‘lovchi km uchun 270 (ikki yuz yigirma) so‘m.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Avtomobil transporti to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan yo‘lovchi:

shahar va shahar atrofi va viloyat ichi shaharlararo yo‘nalishlaridagi avtobuslarda yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni o‘zi bilan bepul olib yurish;

shahar va shahar atrofi yo‘nalishlarida yigirma kilogrammdan oshmaydigan og‘irlikdagi bagajning bir o‘rnini o‘zi bilan bepul olib yurish va boshqa huquqlarga ega ekanligi inobatga olinsin.

3. Viloyat Moliya bosh boshqarmasi (J.Normo‘minov), viloyat Transport boshqarmasi (I.Ibragimov) tuman hokimlari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 8-oktabrdagi “Hududlarda jamoat transporti faoliyatini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi 630-sonli qaroriga asosan, tashuvchilar tomonidan shahar atrofi yoki viloyat ichidagi shaharlararo avtobus yo‘nalishida ko‘riladigan zarar miqdori 30 foizgacha (30 foiz ham shu jumlaga kiradi) bo‘lgan yo‘nalish norentabel avtobus yo‘nalishi bo‘lib hisobga olinishini inobatga olgan holda, mazkur norentabel avtobus yo‘nalishlaridan ko‘riladigan zararlarni Respublika budjeti va viloyatlar mahalliy budjetlari parametrlarida nazarda tutgan holda har oy yakuni bo‘yicha belgilangan tartibda subsidiya ajratish yo‘li bilan qoplab bersishi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

4. Termiz tuman hokimining 2022-yil 16-dekabr kunidagi “Surxondaryo viloyati hokimining viloyat hududidagi shahar atrofi va ichi shaharlararo yo‘lovchilar transportida yo‘lovchi tashish tarilarini belgilash to‘g‘risida”gi 655-8-0-Q/22-sonli qarori haqida”gi 608-8-0-Q/22-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin

5. Mazkur qaror “Janub quyoshi” gazetasida rasman e’lon qilinsin va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6.Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari B.Djurayev zimmasiga yuklansin.

Termiz tumani hokimi **SH.X.Nazarov**